“Oʻzkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 13-martdagi 124-sonli va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi PQ–2884-sonli qarorlari — “Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” hamda “Oʻzkimyosanoat” AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” — asosida tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda. Jamiyat barcha aksiyadorlarga ularning ulushlari, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, teng munosabatda boʻlishni taʼminlaydi. Jamiyat oʻz faoliyatini tijorat asosida olib boradi va uning asosiy maqsadi — Oʻzbekiston Respublikasi kimyo sanoatini rivojlantirish orqali foyda olishdan iboratdir [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Korporativ madaniyat” tushunchasi koʻplab maʼno va mazmunga ega. Edgar Sheynning fikriga koʻra, korporativ madaniyat — bu tashqi muhit oʻzgarishlariga moslashish va ichki integratsiya muammolarini hal qilishda guruh tomonidan ishlab chiqilgan jamoaviy asosiy gʻoyalar namunasi boʻlib, uning samaradorligi “qimmatli” deb baholanishi uchun guruhning yangi aʼzolariga ushbu muammolarni toʻgʻri idrok etish va koʻrib chiqish tizimi sifatida yetarli boʻlishi lozim [3].

«Korporativ madaniyat» atamasi XIX asrda kirib kelgan. Nemis feldmarshali va harbiy nazariyotchi Moltke ofitserlar muhitidagi munosabatlarga eʼtibor qaratgan va bu atamaning hozirgi maʼnosiga 1980-yillarda asos solgan. 1939-yil 1-yanvarda Lyuin, Lippit va Uayt tashkilotlarda “iqlim” gʻoyasidan foydalangan boʻlsa, 1950-yillarda esa Gestalt psixologiyasi asosida “tashkiliy iqlim” va “boshqaruv iqlimi” tushunchalari paydo boʻlgan [4].

XX asrning 1980–1990-yillari mobaynida tashkiliy madaniyat fenomeni koʻplab tadqiqotchilar eʼtiboriga tushdi. T.J. Peters va R.X. Uotermanning “Samarali boshqaruvni izlashda” (1982) asarida korporativ madaniyat tashkilotning koʻrinmas ustuni sifatida taʼriflanib, uni tahlil qilishning uch xil yondashuvi taklif etilgan [5].

V. Ouchining “Z nazariyasi” (1982) ham korporativ madaniyatni shakllantirishda muhim rol oʻynagan. Ushbu nazariya X va Y nazariyalarining davomi boʻlib, unda liderlik qobiliyatlarini korporativ madaniyatni shakllantirishda qoʻllash zarurligi ilgari suriladi [6].

Shuningdek, T. Dil va A. Kennedining “Korporativ madaniyatlar” (1982) asari korxona va tashkilotlarda korporativ madaniyatni shakllantirish va uning ahamiyati boʻyicha muhim qoʻllanma hisoblanadi [7].

Korporativ madaniyatning kompaniya faoliyatiga taʼsirini E. Pettigryu, S. Feldman, J. Barni, M. Fersirota, F. Riger, Shvarts va Devis, T. Parsons, J. Kotter, J. Xesket kabi olimlar oʻrgangan. Tashkiliy madaniyatni baholash mezonlari esa 1996-yil 1-martda AQSh Milliy standartlar va texnologiyalar instituti huzurida P. Reygan va M. Milter tashabbusi bilan ishlab chiqilgan hujjatlar asosida belgilangan [8].

Korporativ madaniyatga oid nazariyalarni quyidagi olimlar chuqur yoritgan: R. Ryuttinger, K. Veyk, P.B. Vayl, D. Meyerson, G. Mintsberg, G. Morgan, M. Pakanovskiy, A. Pettigryu, S. Robbins, D. Silverman, L. Smirchic, M. Thevenet, A. Uilyams, M. Feldman, P. Frost va boshqalar. Shuningdek, T. Dil, A. Kennedi, K. Kameron, R. Kvinn, V. Sathe, E. Sheyn, V. Ouchi, M. Elvesson kabi olimlarning hissasi katta [9].

Maykl Armstrong “Korporativ madaniyat — bu soʻzlar bilan ifodalanmagan, lekin insonlarning oʻzini qanday tutishi va qanday harakat qilishini shakllantiradigan qadriyatlar, meʼyorlar, koʻrsatmalar va taxminlar modelidir”, deb oʻz asarida taʼkidlaydi [10].

Girt Xofstede milliy madaniyatning ish muhitiga ta’sirini o‘rganishda kashshof hisoblanadi. U tashkiliy madaniyatni “bir tashkilot a’zolarini boshqa tashkilot a’zolaridan farqlaydigan fikrlarning jamoaviy dasturlanishi” sifatida tariflaydi [11].

F. Trompenaars esa korporativ madaniyatni nafaqat texnologiyalar va bozorlar, balki tashkilotlardagi milliy menejerlar va xodimlarning madaniy imtiyozlarini muvofiqlashtirish orqali boshqarishni taklif qiladi [12].

1982-yil 15-iyulda Nyu-Yorkda eng ko‘p sotilgan kitob — Tom Peters va Bob Uotermanning “Mukammallikni izlashda” — taqdim etildi. Kitobda yuqori samarali deb topilgan kompaniyalar o‘z tengdoshlariga nisbatan qanday qarashlar, qadriyatlar va xatti-harakatlar orqali ustunlikka erishgani yoritilgan. Garvard professori Jon Kotter tomonidan olib borilgan tadqiqotlar madaniyat va biznes o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga zamin yaratdi. Natijada, 1982–2000-yillar oralig‘ida yangi biznes modellariga mos madaniyatni shakllantirish va tegishli xatti-harakatlarni rivojlantirish uchun yuqoridan pastga yo‘naltirilgan seminarlar orqali ko‘plab madaniyatni o‘rgatuvchi firmalar paydo bo‘ldi [13]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish jarayonining nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

Tadqiqotning metodologik asoslari

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy boshqaruv nazariyasi, korporativ madaniyat konsepsiyalari, inson resurslarini boshqarish tizimlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarining tashkiliy tuzilmasi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarga tayandi. Jumladan, Edgar Sheyn, Girt Xofstede, T.Dil, A.Kennedi, M.Armstrong, R.Ryuttinger kabi olimlarning ilmiy ishlari asos sifatida olindi.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti

Ob’ekti: Aksiyadorlik jamiyatlarida tashkil etilgan boshqaruv tizimi.

Predmeti: Ushbu tizimda korporativ madaniyatni shakllantirish, baholash va takomillashtirish mexanizmlari.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tahliliy metod – korporativ madaniyat va boshqaruv tizimining nazariy asoslari tahlil qilindi;

Solishtirma metod – turli aksiyadorlik korxonalarida mavjud korporativ madaniyat tajribalari solishtirildi;

Empirik metodlar – respondentlar o‘rtasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkazildi;

Statistik tahlil – “O‘zkimyosanoat” AJ misolida ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rganildi;

SWOT tahlil – korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlari baholandi.

Tadqiqot bazasi

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, xususan, 2023-yil 18-yanvardagi PF–4720-sonli Prezident Farmoni, “O‘zkimyosanoat” AJ faoliyati, yillik hisobotlari va boshqa statistik manbalar asos qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqotda aksiyadorlik korxonalarida korporativ madaniyatni baholashning kompleks mezonlari ishlab chiqildi, ilg‘or xorijiy yondashuvlar milliy boshqaruv tizimiga uyg‘unlashtirildi hamda «O‘zkimyosanoat» AJ misolida real holat tahlili asosida takomillashtirish choralari taklif etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalarning barqaror faoliyatini ta’minlashda moliyaviy, moddiy va inson resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanadi. Bu vazifalarni hal etishdagi asosiy maqsad — korxona personalining samaradorligini korporativ madaniyat kontekstida aniqlashdan iborat.

Kimyo sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha qishloq xo‘jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarishni jadallashtirish maqsadida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni barpo etish orqali shakllangan.

Bundan tashqari, kompaniya ustavida korporativ boshqaruv va inson resurslarini boshqarishga qaratilgan quyidagi bandlar alohida e’tiborga loyiqdir:

“O‘zkimyosanoat” AJ tuzilmasiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirishga ko‘maklashish, ularda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish va takomillashtirish;

yangi, raqobatbardosh, innovatsion texnologiyalar va mahsulot turlarini yaratish hamda joriy etishga, mahsulotga energiya va resurs sarfini kamaytirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan, tarmoqlararo ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallagan, bozor sharoitlarida ish jarayonini samarali tashkil eta oladigan muhandis-texnik va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash.

Ushbu bandlardan ko‘rinib turibdiki, “O‘zkimyosanoat” AJ o‘z tarkibiga kiruvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish, korporativ boshqaruv usullarini takomillashtirish va malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi.

“O‘zkimyosanoat” AJning kadrlar siyosatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi natijalarni tahlil qilishni lozim, deb hisoblaymiz:

1-jadval. “O‘zkimyosanoat” AJ da ishga qabul qilinganlik va rotatsiya ko‘rsatkichlari[1]

| n | Nomi | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Ishga qabul qilinganlar | 30 | 56 | 25 |
| 2 | Rotatsiya qilinganlar | 12 | 17 | 11 |

1-jadvalda ish rotatsiyasi — bu xodimlarga yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish, jamoa ichidagi boshqa funksiyalarni o‘zlashtirish hamda biznes doirasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida vaqtincha boshqa lavozimlarga tayinlash amaliyoti — va uning ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Xodimlarni rivojlantirishga sarmoya kiritish orqali kompaniyalar ichki harakatchanlikni oshirish hamda kelajakdagi liderlarni yetishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Korxonada 2023-yil davomida rotatsiya ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, xodimlarning qariyb 32 foizi o‘z ish joylarini almashtirgan va yangi ko‘nikma hamda bilimlarga ega bo‘lgan.

2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 14 foizga qisqargan.

2-jadval. Korxonada xodimlar farovonligi uchun qilingan xarajatlar[2]:

| N | Xarajatlar nomi | 2022y | 2023y | 2024y |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Mehnatga haq to‘lash xarajatlari | 0 | 21 170 249 | 22 894 446 |
| 2 | Ish staji uchun to‘lovlar | 0 | 5 666 330 | 8 389 843 |
| 3 | Yagona ijtimoiy to‘lov | 0 | 3 468 726 | 4 062 815 |
| 4 | Ma’naviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish va tanlov g’oliblarini rag’batlantirish | 0 | 0 | 500 000 |
| 5 | Kadrlarni tayyorlash, xodimlarni MSFO bo‘yicha o‘qirish | 0 | 351 565 | 400 000 |
| 6 | Sug’urta xizmatlari | 0 | 1 882 | 3 202 |
| 7 | Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, tibbiy xizmatlar | 0 | 2 850 | 3 000 |
| 8 | Xodimlarga uy ijara to‘lovlarini to‘lab berish | 0 | 0 | 0 |
| | Jami | | 30 658 602 | 36 250 606 |

1 Korxonaning veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari
2 Korxonaning veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

2-jadvaldan koʻrinib turibdiki, korxonaning xodimlarning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga boʻlgan eʼtibori yildan yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, 2023-yildan boshlab asosiy tashabbuslarning bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgani eʼtiborga loyiq holatdir.

Jadval tahlilidan kadrlarni tayyorlash yoki alohida qoʻshimcha koʻnikmalarni oʻrgatish uchun ajratiladigan mablagʻ miqdori aniq koʻrsatilmaganligi kuzatildi.

Xodimlarning kasbiy, professional va ruhiy jihatdan rivojlanishi — xalqaro moliyaviy hisobotlarni oʻrganish darajasidagi dolzarb tamoyillardan biri sifatida eʼtirof etilsa, bu holat maqsadga muvofiq boʻlardi.

3-jadval. "Oʻzkimyosanoat" AJ SWOT tahlili[3]

| | |
|---|---|
| Ijobiy tomonlari<br>· Boshqaruv tizimining shaffofligi.<br>· Korxonalar faoliyatida toʻplangan amaliy tajriba.<br>· Xodimlarning yuqori malakali mutaxassisligi.<br>· Sertifikatlangan sifat menejmenti tizimining mavjudligi.<br>· Kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining yoʻlga qoʻyilganligi. | Salbiy tomonlari<br>· Tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan energiya resurslarining beqaror yetkazib berilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonining rejadan tashqari toʻxtab qolish holatlari.<br>· Kadrlar almashuvining yuqoriligi (qoʻnimsizlik darajasining yuqoriligi).<br>· Asosiy vositalarning eskirish darajasining yuqoriligi. |
| Imkoniyatlar<br>· Xorijiy investitsiyalarni jalb etish salohiyatining yuqoriligi.<br>· Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida joriy etish imkoniyati.<br>· Moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakatini boshqarishning zamonaviy dasturiy yechimlarini tatbiq etish imkoniyati.<br>· Jahon bozorlariga chiqish orqali eksport salohiyatini kengaytirish. | Xavf-xatar<br>• • Oʻzbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan energiya resurslari bilan beqaror taʼminlanishi.<br>· Korxonaning energiya resurslari narxlariga yuqori darajada bogʻliqligi.<br>· Jahon bozorlaridagi narx muhitining oʻzgarishi natijasida uzoq xorijiy mamlakatlarga mahsulot eksportining raqobatbardoshligi pasayishi. |

3-jadvaldagi SWOT tahlili natijalariga koʻra, "Oʻzkimyosanoat" AJning bir qator ichki va tashqi faoliyat yoʻnalishlarida muhim oʻzgarishlar aniqlangan. Korxonaning ichki faoliyati tahlil qilinar ekan, boshqaruv tizimi hamda xodimlar malakasi boʻyicha kuchli tomonlar mavjudligi qayd etiladi. Biroq, bunga zid holat sifatida, xodimlar qoʻnimsizligi darajasining yuqoriligi korxonaning kadrlar malakasi yuqoriligiga qaramay, salbiy taʼsir koʻrsatayotgani kuzatilmoqda.

Korxonaga tashqi imkoniyatlar va xavf-xatarlar nuqtai nazaridan qaralganda, jahon bozoriga chiqish ustuvor strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan. "Oʻzkimyosanoat" AJ 2030-yilgacha boʻlgan davr uchun moʻljallangan strategik rejasida jahon bozorida oʻz oʻrnini mustahkamlashni asosiy maqsad sifatida ilgari surgan. Shu bilan birga, xavf-xatarlar boʻlimida raqobatbardoshlikning pasayishi asosiy tahdid sifatida eʼtirof etilgan.

Tanlab olingan obyekt misolida tashqi kommunikatsiya va aloqalar funksiyasi tahlil qilinganda, bu yoʻnalishda eʼtiborga molik jihatlar mavjudligi aniqlanadi. Jumladan, "Oʻzkimyosanoat" AJ zamonaviy, barqaror va foydalanuvchilar uchun qulay veb-saytga ega. Bu xodimlar, tashqi tashrif buyuruvchilar, investorlar hamda aksiyadorlar uchun kerakli maʼlumotlarni tezkor tarzda olish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, sayt ochiqlik tamoyiliga asoslangan boʻlib, unda moliyaviy hisobotlar, korporativ hujjatlar hamda korxonaning 5 yillik strategik rejasi erkin foydalanish uchun joylashtirilgan.

**Maqsadlarni belgilash** — bu maqsad va strategiyalarni toʻgʻri shakllantirish funksiyasi boʻlib, u chuqur ildiz otgan vazifalarni hal etishga qaratilgan. Mazkur funksiyaning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

korxonaning "daraxtli maqsad" tuzilmasini shakllantirish, yaʼni tibbiyotdagi kabi, tashkilotning barcha aʼzolari yagona yoʻnalishda, umumiy maqsad sari harakat qilishi lozim;

maqsadlarga erishish mezonlarini belgilash;

korxonaning strategik tizimini boshqarish.

Yuqorida taʼkidlanganidek, "Oʻzkimyosanoat" AJning har bir yoʻnalish boʻyicha ishlab chiqilgan kompleks strategiyasi mavjud boʻlib, u tashqi taʼsirlarga tezkor va mos javob qaytarish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini beradi. Quyidagi jadvalda kimyo sanoatini rivojlantirishga oid maqsadli parametrlar keltirilgan.

3 Korxonaning veb-sayti maʼlumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

4-jadval. Korxonaning kimyo sanoatini rivojlantirishning maqsadli parametrlari jadvali

| | Nomi | 2022y amalda | | 2023y amalda | | 2024y amalda | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | miqdori | foizda % | miqdori | foizda % | miqdori | foizda % |
| | Sof foyda | 433 929 470 | 100,0% | 129 203 495 | 100,0% | 111 440 239 | 100,0% |
| | Foyda taqsimoti takliflar | | | | | | |
| 1 | Reserv kapitali | 21 696 473 | 5,0 | 1 292 035 | 1,0 | 1 114 402 | 1,0 |
| 2 | Mehnatni muhofaza qilish ajratmalar | 4 339 295 | 1,0 | 1 292 035 | 1,0 | 1 114 402 | 1,0 |
| 3 | Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash fondiga ajratmalar | | | 12 920 350 | 10,0 | 11 144 023 | 10,0 |
| 4 | Kimyo sanoati tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash jamg’armasini to‘ldirish uchun | | | 34 238 926 | 26,5 | 32 317 669 | 29,0 |
| 5 | Dividendlar to‘lash jami | | | 64 601 747 | 50,0 | 55 720 120 | 50,0 |
| | Shu jumladan, davlar ulishiga | | | 64 601 747 | | 55 720 120 | |
| 6 | Boshqaruv, nazorat va boshqaruv organlarini, hamda jamoa xodimlarini rag’batlantirish | 8 678 589 | 2,0 | 9 690 262 | 7,5 | 5 572 012 | 5,0 |
| 7 | Jamiyatda olingan zararlarni qoplash uchun qoldirish | 399 215 112 | 92,0 | 0 | | | |

4-jadvaldagi ma’lumotlar kompaniyaning moliyaviy ustuvorliklarida so‘nggi uch yil davomida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlar, asosan, aksiyadorlarni mukofotlash, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash hamda asosiy tarmoqlar rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan izohlanadi.

Jami foydaning qisqarishi va mablag‘larning qayta taqsimlanishi kompaniya hali ham innovatsiyalar va kimyo sanoatini rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarga sodiqligini saqlab qolayotganini bildiradi. Shu bilan birga, mavjud resurslardan samarali foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ortganligini ham ko‘rsatadi.

Kelgusi yillarda moliyaviy yo‘qotishlarni qoplash maqsadida yirik miqdordagi mablag‘larning olib tashlanishi kompaniyaning moliyaviy barqarorligi yaxshilanganini yoki risklarni boshqarish strategiyasida muhim o‘zgarishlar ro‘y berganini anglatishi mumkin.

5-jadval. 2024 yilda «O‘zkimyosanoat» AJ ijro organi faoliyatini samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlarning ulushlari[4]

| | Ko‘rsatkichlar | Foizdagi ulushi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 chorak | 1 yarim yillik | 9 oy | Yil | O‘lchov birligi |
| I | Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | |
| 1 | Sof foyda rejaning bajarilishi | -5 999 324 | -24 609 680 | -56 161 080 | 111 440 239 | Ming so‘m |
| 2 | Aktivlar rentabilligi | -0,001 | -0,005 | -0,011 | 0,022 | koeffisient |
| 3 | Moliyaviy barqarorlik koeffisienti | 782,17 | 1 252,90 | 751,71 | 793,51 | koeffisient |
| 4 | To‘lov qobiliyati koeffisienti | 67,88 | 86,72 | 38,89 | 60,26 | koeffisient |
| II | Sanoat ko‘rsatkichlari | | | | | |
| 1 | Ishlab chiqarish o‘sish su’ratini ta’minlash | 120,7 | 107,7 | 108,9 | 110,4 | foiz |
| 2 | Investitsiyalarni o‘zlashtirish | 201,7 | 401,1 | 741,8 | 1 116,8 | mln dollar |
| 3 | Export hajmini oshirish | 88,9 | 229,0 | 394,0 | 775,0 | mln dollar |
| 4 | Mahalliylashtirish dasturi ko‘rsatkichlarni bajarish | 543,6 | 1 260,5 | 2 116,5 | 3 075,0 | mlrd dollar |
| 5 | Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish | 360,3 | 751,7 | 1 145,4 | 1 830,4 | mlrd dollar |

4 Internet ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

5-jadval tahliliga koʻra, aktivlar rentabilligi (ya'ni aktivlarning rentabellik koeffitsienti) — bu kompaniyaning aktivlaridan qancha foyda olinayotganini koʻrsatuvchi muhim iqtisodiy koʻrsatkichdir. Ushbu koʻrsatkich kompaniyaning umumiy aktivlaridan (masalan, qoʻshimcha mablagʻlar, uskunalar, inventar) qanday samarali foydalanayotganini va ular orqali qancha daromad yaratilayotganini oʻlchaydi. Aktivlar rentabilligi korxonaning moliyaviy samaradorligini aniqlashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Aktivlar hajmi qanchalik yuqori va samarali ishlatilsa, korxonaning resurslardan foydalanish darajasi shunchalik yuqori boʻladi.

Qarz nisbati esa korxonaning moliyaviy barqarorligini va umumiy iqtisodiy holatini tavsiflaydi. "Oʻzkimyosanoat" AJ koʻrsatkichlariga koʻra, qarz nisbati 2023-yilda soʻnggi 3 yilga nisbatan 10 % ga kamaygan. Bu holat kompaniyaning moliyaviy risklarga kamroq duch kelayotganini bildiradi.

Investitsiyalarni samarali oʻzlashtirish bandi rahbar xodimlarning KPI (asosiy faoliyat koʻrsatkichlari) tizimida alohida baholash mezoni sifatida kiritilgan boʻlib, ushbu yoʻnalish yuqori darajada amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarishning oʻsish sur'atini ta'minlash hamda mahalliylashtirish dasturi esa rejadan biroz ortda qolmoqda. Eng past koʻrsatkich sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini pasaytirish koʻrsatilgan. Shu bilan birga, bu yoʻnalishda muhim ishlar amalga oshirilmoqda va 2030-yilga moʻljallangan tannarxni pasaytirish boʻyicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar oʻz samarasini berishi kutilmoqda.

Amaliyotda sanoat korxonalarida qisqa, oʻrta va uzoq muddatga moʻljallangan prognozlar ishlab chiqishda turli ssenariylardan foydalaniladi. Bularga evolyutsion, pessimistik, optimistik, dinamik hamda progressiv ssenariylar misol boʻla oladi.

Xulosa oʻrnida shuni ta'kidlash joizki, sanoatning ustuvor tarmoqlarida transformatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va rivojlantirish tendensiyalarini chuqur oʻrganish, bir tomondan, mamlakatimizda biznes muhitni yaxshilashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ichki va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berishga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ madaniyat — bu jamoaning barcha a'zolari faoliyatini boshqaruvchi va yoʻnaltiruvchi qadriyatlar, taxminlar hamda amaliyotlar majmuidir. Uni korxonaning oʻziga xosligini belgilovchi xususiyatlar yigʻindisi sifatida talqin qilish mumkin. Yaxshi shakllangan korporativ madaniyat samaradorlikni oshiruvchi ijobiy fazilatlarning manbai boʻlishi mumkin. Aksincha, notoʻgʻri shakllangan kompaniya madaniyati hatto eng muvaffaqiyatli tashkilotlar rivojiga toʻsqinlik qiluvchi salbiy jarayonlarga olib kelishi mumkin.

Korxonalarda personalni boshqarish tizimida tashkilot faoliyatiga mos korporativ madaniyatni tanlash va tahlil qilish, agar mavjud boʻlsa, uni korxonaning amaldagi yoʻnalishiga mos ravishda oʻzgartirish — bugungi davrning dolzarb talablaridan biridir.

Dunyo miqyosidagi yetakchi kompaniyalarning aksariyati uchun muvaffaqiyat va strategik maqsadlarga erishish faqat mukammal ishlab chiqarish texnologik zanjiri bilan emas, balki xodimlarning motivatsiyasi, jamoaviy muhit va korporativ qadriyatlarga sodiqligi bilan bogʻliqdir. Ijtimoiy-psixologik muhitning sogʻlomligi, xodimlarning umumiy maqsadlarga boʻlgan qiziqishi va jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki korporativ madaniyat muammolariga e'tiborni oshirmoqda.

Korporativ madaniyat xodimlarga korxona haqida umumiy tasavvurga ega boʻlish, unda sodir boʻladigan voqealar uchun mas'uliyat his qilish, ichki kommunikatsiyalarning ahamiyatini anglash, barqarorlik va muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy menejerning asosiy vazifalaridan biri — milliy mentalitet, tanlangan rivojlanish strategiyasi va kompaniya siyosatini hisobga olgan holda korporativ madaniyatni toʻgʻri shakllantirish hamda uni zarur yoʻnalishda rivojlantirishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati


1. Тренев Н.Н. Стратегическое управление: учебное пособие для вузов. — М.: ПРИОР, 2002.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-yil 18-yanvardagi ПФ–4720-сонли «Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони. https://lex.uz/docs/2635197?ONDATE=09.04.2022%2000
3. Шайн Э. Организационная культура и лидерство / Пер. с англ., под ред. В.А. Спивака. — СПб.: Питер, 2002.
4. Федорова А.А. Корпоративная культура в системе управления организацией: диссертация кандидата экономических наук. — Москва, 2005.
5. Питерс Т., Уотерман Р. В поисках эффективного управления. — М., 1986.
6. Ouchi W.G., Johnson J. Types of Organizational Control and Their Relationship to Emotional Well-being // Administrative Science Quarterly. — 1978. — Vol. 24. — Pp. 293–317.
7. Дойль П. Менеджмент: стратегия и тактика (серия «Теория и практика менеджмента»). — СПб.: Питер, 1999. — 560 с.
8. Управление персоналом организации: учебник / Под ред. А.Я. Кибанова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2001.

9. Рюттингер Р. Культура предпринимательства. — М.: Эком, 1992. — 240 с.
10. Армстронг М. Практика управления человеческими ресурсами. — СПб.: Питер, 2005.
11. Hofstede G.H. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. — 2nd ed. — Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2001.
12. Trompenaars F., Woolliams P. When Two Worlds Collide. // Trompenaars Hampden-Turner Intercultural Management Consulting, 2000.
13. Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке. — СПб.: Питер, 2001.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz